

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH

Haqberdiev Ulug‘bek Nasrullo o‘g‘li

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi
Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish,
yangi turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarishni
va sertifikatlashni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

ORCID: 0009 0002 0026 7218

E mail: ulugbek_haqberdiyev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tamoyillarini joriy etishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Qurilish materiallari sanoatidagi iqtisodiy tendensiyalar, sanoatdagi sifat muammolari va xalqaro standartlarga moslashish zarurati orqali asoslangan. Sohadagi real tendensiyalar yoritilgan, sifatni boshqarishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etishning strategik ahamiyati va uni amaliyotga tatbiq qilishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: sifat menejmenti, qurilish materiallari, ISO 9001, ishlab chiqarish samaradorligi, sifat standartlari, strategik boshqaruv, sertifikatlash, raqobatbardoshlik, mahalliy sanoat, mahsulot sifati, iqtisodiy tahlil, menejment tizimi.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы и практические аспекты внедрения принципов менеджмента качества в отрасли строительных материалов. Он основан на экономических тенденциях в отрасли строительных материалов, проблемах качества в отрасли и необходимости адаптации к международным стандартам. Освещаются реальные тенденции в отрасли, разрабатываются существующие проблемы менеджмента качества и предложения по их преодолению. Показана стратегическая значимость внедрения менеджмента качества в отрасли строительных материалов и приоритетные направления его внедрения в практику.

Ключевые слова: управление качеством, строительные материалы, ISO 9001, эффективность производства, стандарты качества, стратегическое управление, сертификация, конкурентоспособность, отечественная промышленность, качество продукции, экономический анализ, система управления.

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of the introduction of the principles of Quality Management in the building materials

industry. It is based through economic trends in the building materials industry, quality problems in the industry and the need to adapt to international standards. REAL Trends in the industry are illuminated, existing problems in quality management and proposals for their elimination have been developed. The strategic importance of the introduction of Quality Management in the building materials industry and the priorities for its implementation in practice are outlined.

Keywords: quality management, building materials, ISO 9001, production efficiency, quality standards, Strategic Management, Certification, competitiveness, domestic industry, product quality, economic analysis, management system.

KIRISH

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi sanoat tarmoqlarining samaradorligi va mahsulotlarining raqobatbardoshligi bilan bevosita bogʻliq. Shu nuqtai nazardan qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U mamlakat infratuzilmasini yangilash, sanoat va fuqarolik inshootlarini qurish, aholini uy-joy bilan taʼminlash, shuningdek, tashqi bozorda milliy mahsulotlar bilan ishtirok etish singari ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Oʻzbekistonda qurilish sohasi keng koʻlamda rivojlanmoqda. Yangi shaharlar va tumanlar tashkil etilayotgani, aholi uchun yangi turarjoylar barpo etilayotgani, yoʻl-transport va sanoat infratuzilmalari yangilanyotgani bu sohada qurilish materiallariga boʻlgan ehtiyojni keskin oshirdi. Ammo bu ehtiyojni faqat miqdor jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham qondirish talab etiladi. Chunki qurilish materiallarining sifati barcha inshootlarning mustahkamligi, xavfsizligi va uzoq muddatlilik uchun asosiy omildir.

Bugungi global iqtisodiyotda sifat tushunchasi yangi mazmun kasb etmoqda. Mijoz talablarining oshib borishi, xalqaro standartlar va texnik reglamentlarning murakkablashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarishda sifatni boshqarishni faqatgina texnik jarayon sifatida emas, balki strategik boshqaruv yoʻnalishi sifatida koʻrishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan, sifat menejmenti tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish qurilish materiallari sanoatining barqaror rivojlanishi va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini taʼminlashning zarur shartiga aylangan.

Oʻzbekistonda qurilish sohasidagi ulkan islohotlar natijasida sohaning umumiy hajmi keskin oʻsdi. Yangi shaharlar va aholi punktlarini rivojlantirish, yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy turarjoylar va biznes markazlari qurilishi sohada qurilish materiallariga boʻlgan talabni nafaqat koʻpaytirdi, balki uning sifatiga boʻlgan talabni ham oshirdi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sifatni boshqarishning xalqaro mezonlariga javob beradigan tizimni joriy etishni talab qilmoqda.

Respublikamizda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish boʻyicha barqaror oʻsish suratlarini taʼminlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy oʻzgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. armoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun

qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy mineral xom ashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish va qurilish materiallarini eksport qilish hajmlarini oshirish maqsadida:[1] 2019 - 2025 yillarda mahalliy xom ashyo geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish prognoz ko'rsatkichlari hamda 2019 - 2025 yillarda diversifikatsiya qilish va mahsulot turlarini kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarishning maqsadli ko'rsatkichlar muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda: geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasi hajmlarini ohaktosh bo'yicha - 13,1 mln tonnaga, gips toshi bo'yicha - 1,8 mln tonnaga, loysimon komponentlar, g'isht xom ashyosi, kvars qumi bo'yicha - 1 mln tonnaga, ko'chgan tog' jinslari (bazalt) bo'yicha - 0,1 mln tonnaga, tosh-shag'al materiallar bo'yicha -5,6 mln metr kubga; ishlab chiqarish hajmlarini oboylar bo'yicha -47 barobardan ortiq hajmga, yig'ilgan parket panellari va plitalari bo'yicha - 19 barobarga, yog'och qirindili plitalar hamda yog'och va boshqa yog'ochbop materiallardan tayyorlangan plitalar bo'yicha -15 barobarga, gazbeton bloklari bo'yicha -7 barobarga, lak-bo'yoq materiallari hamda energiya va issiqlikni tejoychi float-texnologiya asosida ishlab chiqarilgan arxitektura-qurilish oynasi bo'yicha -4 barobarga, bazaltdan tayyorlanadigan kompozit armatura bo'yicha -3 barobarga va sement bo'yicha -2 barobarga oshirish.

Qurilish materiallari nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham eksport mahsuloti sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ammo xalqaro bozorda ishtirok etish uchun mahsulot nafaqat sertifikatlangan bo'lishi, balki ishlab chiqarish jarayonlari ISO 9001:2015 kabi sifat boshqaruvi standartlariga mos ravishda tashkil etilgan bo'lishi shart. Bu esa sifat menejmentini nafaqat texnologik jihat, balki boshqaruv strategiyasi sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'p hollarda xomashyo va energiya resurslarining katta sarfini talab qiladi. Agar sifat menejmenti tizimli tarzda joriy etilsa, ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlik ortadi, chiqindilar miqdori kamayadi, qayta ishlash imkoniyatlari kengayadi. Bu nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Amaliyotdagi muammolardan biri – ko'pgina mahalliy ishlab chiqaruvchilar sifatni faqat sinov natijalari yoki sertifikat bilan bog'laydilar. Ammo sifat menejmenti buning o'zi bilan cheklanmaydi. U butun ishlab chiqarish tizimini qamrab oluvchi, har bir bo'g'inda sifat talablariga amal qilishni ta'minlovchi kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, malaka oshirish, ichki auditlar o'tkazish, xodimlarni sifat madaniyatiga o'rgatish, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish kabi choralar dolzarb ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, sifat menejmentini samarali joriy qilish korxonalar faoliyatining barcha jabhalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: ishlab chiqarishda nosozliklar kamayadi; mijozlar shikoyatlari qisqaradi; bozordagi ishonch va obro' ortishi ta'minlanadi; mahsulot tannarxi optimallasadi; yangi texnologiyalarni joriy etish osonlashadi.

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish masalasi nafaqat iqtisodiy zarurat, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega muammodir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etishga oid masalalar jahon va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, bu borada bir qator nazariy va amaliy yondashuvlar shakllangan. Iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari shundan dalolat beryaptiki, sifat menejmenti nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki korxonaning strategik rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan Edvard Deming o‘zining ilmiy tadqiqotlarida, sifatni boshqarishda statistik usullardan foydalanish, rahbariyatning mas’uliyati va tizimli tahlil zarurligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning fikriga ko‘ra, sifat – bu tasodifiy natija emas, balki to‘g‘ri tashkil etilgan va muntazam takomillashtiriladigan jarayonlar samarasidir. Edvard Deming «sifat - bu mijoz talabini birinchi martada to‘g‘ri bajarish» degan qarashni ilgari surgan.[2] Ammo tanqid nuqtai nazaridan, uning modellari asosan katta industrial tizimlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kichik va o‘rta korxonalar sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmasligi mumkin.

Jozef Juran tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, sifatni strategik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida ko‘radi. Uning «sifat rejalashtirish», «sifat nazorati» va «sifatni takomillashtirish» konsepsiyalari qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.[3] Jozef Juran mahsulot sifatini yaxshilash uchun rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi mas’uliyatni aniq taqsimlashni muhim deb hisoblaydi. Biroq uning nazariyalari asosan inson faktoriga suyangan bo‘lib, bu ayrim holatlarda avtomatlashtirilgan tizimlarni qo‘llash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Filip Krosbining tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda, «sifat - bu bepul» degan tamoyili qurilish materiallari sanoati uchun juda mos keladi. [4] Uning fikricha, sifatsiz ishlab chiqarish juda qimmatga tushadi va bu korxonada faoliyatini izdan chiqarishi mumkin. U «nol nuqson» konsepsiyasini ilgari surgan. Ammo ushbu yondashuv tanqidiy jihatdan qaralganda, barcha korxonalarda doimiy ravishda “nol nuqson”ga erishish oson emas, chunki bu yuqori darajadagi resurs va texnologiya talab qiladi.

Mahalliy olimlardan M.M. Qurbonov va Sh.X. Ergashevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, sifat menejmenti tizimlarini mahalliy sanoat korxonalari sharoitida joriy etishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqqan.[5] Ular o‘z ishlarida sifat menejmentini korxonaning barcha bo‘limlari faoliyatiga integratsiya qilish, xodimlarni sifat madaniyatiga o‘rgatish va ichki auditni samarali tashkil etish muhimligini ta’kidlashgan. Ammo ularning ishlarida sifat menejmentini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish borasida yetarlicha amaliy tavsiyalar mavjud emas.

Shu bilan birga, H.T. Nazarov o‘z tadqiqotlarida sifatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilib, uning korxonada daromadlariga, bozordagi o‘rniga va eksport salohiyatiga ta’sirini ko‘rsatib bergan.[6] Uning tahliliy modellari korxonada ichki jarayonlarini baholashda qo‘l kelishi mumkin. Tanqidiy nuqtai nazardan esa,

Nazarovning ishlarida tarmoqqa ixtisoslashgan, ya'ni qurilish materiallari sanoatiga moslashtirilgan konkret keyslar kamroq qamrab olingan.

Armand Feygenbaum sifat menejmentining yana bir yetakchi nazariyachisi hisoblanadi. U «Total Quality Control» (To'liq sifat nazorati) konsepsiyasini ilgari surgan bo'lib, bu yondashuvga ko'ra, sifat faqatgina mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida emas, balki loyihalash, ta'minot, marketing, sotuv va xizmat ko'rsatish kabi barcha bosqichlarda ta'minlanishi kerak. Feygenbaumning fikricha, sifat butun tashkilot mas'uliyati bo'lib, uning samarasi faqat texnik mutaxassislariga bog'liq emas, balki har bir xodimga tegishlidir.[7] Uning nazariyasi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ayniqsa dolzarb, chunki bu sohada mahsulot sifatini faqat laboratoriya sinovlari bilan emas, balki umumiy jarayonlar hamohangligi orqali ta'minlash mumkin.

Kaoru Isikava tomonidan Yaponiya sifat boshqaruvi maktabining asoschilaridan biri sifatida tanilgan. U sifatni keng jamoatchilik ishtirokida boshqarish zarurligini ilgari surgan.[8] Isikavaning «sifat doiralari» (quality circles) konsepsiyasi xodimlarni jarayonlarga jalb qilish va jamoaviy yechim topishga yo'naltirilgan bo'lib, bu qurilish materiallari sanoatida kadrlar bilan ishlash, ilg'or g'oyalarni joriy etish va ichki muhitni yaxshilashda foydalidir.

Genri Misberg tomonidan, sifatni tashkilotning strategik boshqaruv qismi sifatida ko'radi. Uning fikricha, sifatni ta'minlash uchun korxonadagi boshqaruv tuzilmasi, ish jarayonlari va korporativ madaniyat uyg'un holda ishlashi kerak.[9] Misberg sifat menejmentini faqat texnik vosita emas, balki korporativ falsafa sifatida ko'radi. Bu yondashuv qurilish materiallari sanoatida sifatni faqat natija emas, balki doimiy jarayon sifatida ko'rishga asos yaratadi.

Taguchi Gen'iti esa sifatni ta'minlashda ishlab chiqarishdagi o'zgaruvchanliklarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratadi. Uning «Taguchi usuli» statistik eksperimentlar orqali texnologiyani optimallashtirishga yo'naltirilgan.[10] Uning fikricha, mahsulot sifatini faqat tayyor holatda emas, balki loyihalash va ishlab chiqarish bosqichlaridayoq ta'minlash lozim. Bu yondashuv qurilish materiallari ishlab chiqarishda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishda juda foydali.

Mahalliy olimlardan N.N. Abdurashidovning ilmiy ishlarida sifat menejmentini innovatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtirish masalalari o'rganilgan.[11] U mahalliy korxonalarda sifatni boshqarish tizimini joriy qilishda mutaxassislar salohiyati, texnologik bazaning holati va boshqaruv usullari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.


Umuman, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti nazariyalari mukammal bo'lsa-da, ularni qurilish materiallari sanoatiga moslashtirish va mahalliy sharoitda amalda qo'llash uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Ishlab chiqarish texnologiyalari, bozor talablari va mehnat resurslari bilan bog'liq mahalliy omillar ushbu modellarning qayta tahririni taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tamoyillari asosida ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Sifat – bugungi kunda har qanday mahsulot yoki xizmat uchun asosiy raqobatbardoshlik mezoniga aylangan. Xususan, qurilish materiallari kabi muhim strategik mahsulotlarda sifat masalasi nafaqat bozordagi muvaffaqiyat, balki qurilayotgan inshootlarning xavfsizligi, barqarorligi va uzoq muddatligi bilan bog'liq. Shu sababli, qurilish materiallari sanoatida sifatni boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy menejment asosida tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.




1-rasm. O'zbekistonda 2020–2024 yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'mda)[13]

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar ko'ra, 2020–2024 yillar davomida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sishni namoyon etdi. Ammo o'sish sur'ati yildan-yilga pasayib borgani kuzatildi, bu esa soha rivojlanishidagi muayyan to'siqlar va resurs yetishmasligi kabi omillarning ta'sirini ko'rsatadi.



2-rasm. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni[13]

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, korxonalar sonining o'sishi sohaga bo'lgan talabning ortishi va yangi bozor ishtirokchilarining kirib kelishi bilan izohlanadi. Ammo o'sish sur'atining pasayishi raqobat muhitidagi murakkabliklar va sifat talablariga moslashishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatadi.



3-rasm. Sifat sertifikatiga ega korxonalar ulushi (%) [14]

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, sifat sertifikatiga ega korxonalar ulushining ortishi ijobiy tendensiyani ko'rsatadi. Ammo 2024 yilda ham 35% korxonaning sertifikatga ega emasligi soha uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Bu sifat menejmenti tizimlarini joriy etishdagi to‘siqlar va resurs yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda 2020-2024 yillar davomida qurilish materiallari sanoatida barqaror o‘shish kuzatildi. Ammo sifat menejmenti tizimlarini joriy etish va sertifikatlashtirishdagi muammolar soha rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, korxonalarda sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etishni rag‘batlantirish, mutaxassislarni tayyorlash va resurslar bilan ta‘minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Sifat menejmenti – bu mahsulot yoki xizmat sifatini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatlarning bir butun tizimi bo‘lib, u faqat nazorat qilish emas, balki rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish va uzluksiz takomillashtirish kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. ISO 9001:2015 xalqaro standartida qayd etilgan asosiy tamoyillar – mijozlar qoniqishini ta‘minlash, rahbarlik mas‘uliyati, xodimlarni jalb qilish, jarayonli yondashuv, tizimli boshqaruv, doimiy takomillashuv va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish – qurilish materiallari sanoati uchun ham juda dolzarbdir.

Afsuski, mahalliy ishlab chiqaruvchilar orasida sifatni faqatgina sertifikatga ega bo‘lish yoki jismoniy nazorat vositasi deb qarash holatlari uchrab turadi. Bu esa mahsulot ishonchliligi va umumiy raqobatbardoshlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, sifatni boshqarish tamoyillarini chuqur tushunish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga to‘g‘ri joriy etish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va strategik ahamiyatga ega jarayon sifatida shakllanmoqda. 2020-2024 yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi, korxonalar soni va sifatiga ega mahsulotlar ulushi ortishi kuzatilgan. Biroq sifat sertifikatiga ega korxonalarining ulushi 65% atrofida ekanligi, sifatni boshqarish xalqaro standartlari barcha korxonalarda tatbiq etilmaganini ko‘rsatadi. Bu esa mahsulot sifatining bir xil emasligi, bozordagi raqobatbardoshlikning cheklanganligi, eksport imkoniyatlarining to‘liq ishga tushirilmagani kabi muammolarga sabab bo‘lmoqda.

Sifat menejmentini to‘g‘ri tashkil qilish nafaqat mahsulotning texnik talablarga javob berishini, balki ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulotlarni bozorda tez va uzoq muddatda saqlash, mijozlar ishonchini orttirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash singari omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham, ushbu sohadagi har bir korxonada sifatni faqat nazorat ob‘ekti emas, balki strategik boshqaruv elementi sifatida ko‘ra bilishi zarur.

Sohadagi real muammolarga yechim sifatida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Sifatni strategik maqsad sifatida belgilash: Har bir korxonada sifat siyosatini shakllantirish, uni rahbariyat va barcha xodimlar uchun asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash zarur.

2. Sifat menejmenti tizimini institutsional shaklda joriy etish: ISO 9001, ISO 14001 va boshqa standartlar asosida korxonada sifat bo‘limi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

3. Xodimlar malakasini doimiy oshirish: Sifatni ta'minlovchi xodimlar bilan birga barcha bo'limlar xodimlarini sifat madaniyati, standartlar va nazorat usullariga o'rgatish.

4. Texnik va texnologik yangilanish: Ilg'or texnologiyalar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va raqamlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish orqali inson omili ta'sirini kamaytirish.

5. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish: Sifatni rag'batlantirishga qaratilgan grantlar, soliq imtiyozlari va sertifikatlashni yengillashtiruvchi mexanizmlar orqali korxonalarni qo'llab-quvvatlash.

6. Sifatni eksport strategiyasiga bog'lash: Mahsulotlarni xalqaro bozor talablariga muvofiqlashtirish va xorijiy talablarga javob beradigan mahsulot turlarini ishlab chiqish.

Qurilish materiallari sanoati nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlaydi, balki xalqaro maydonda ham O'zbekiston brendining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini to'liq diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va sanoatda innovatsiyani rivojlantirishga turtki beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-may PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://www.lex.uz/ru/docs/4351738>

2. Деминг Э. У. «Выход из кризиса: новая парадигма управления» - Москва: Альпина Бизнес Букс, 2011.

3. Журан Ж. М. «Планирование качества» - Москва: Стандарты и качество, 2004.

4. Кросби Ф. «Качество бесплатно» - Москва: Экономика, 2006.

5. Курбонов М.М., Эргашев Ш.Х. «Корхонада сифат менежментини жорий этишнинг амалий масалалари» // Иқтисодий тараққиёт журнали, №2, 2021.

6. Назаров Х.Т. «Сифатни бошқариш тизимлари: назарий ва амалий асослари» - Тошкент: Иқтисодиёт, 2020.

7. Feigenbaum A. V. Total Quality Control - McGraw-Hill, New York, 1991.

8. Ishikawa K. What is Total Quality Control? The Japanese Way - Prentice Hall, 1985.

9. Taguchi G. Introduction to Quality Engineering - Asian Productivity Organization, Tokyo, 1986.

10. Mintzberg H. The Rise and Fall of Strategic Planning - Free Press, 1994.

11. Абдурашидов Н.Н. "Сифат менежменти ва инновацион ривожланишнинг ўзаро боғлиқлиги" // Иқтисодий таҳлил журнали, №3, 2022.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

13. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari

14. O‘zbekiston Respublikasi Standartlashtirish, metrologiya va
sertifikatlashtirish agentligi ma’lumotlari



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**